

## MIJOZ HISOBVARAG'IDAN PUL MABLAG'LARINI UNING ROZILIGISIZ O'CHIRISHI ASOSLARI

**Adizova Nargiza Parda qizi**

Toshkent davlat yuridik universiteti 3-kurs talabasi

[adizovanargiza9@gmail.com](mailto:adizovanargiza9@gmail.com)

**Annotasiya.** Hozirgi rivojlanib borayotgan davrda ko'plab hisob-kitoblar naqd pulsiz shaklda amalga oshirilmoqda. Buning natijasida banklar va mijozlar o'rtasida tuziladigan bank hisobvarag'i shartnomasi amaliyotda keng qo'llanilmoqda. Ushbu shartnomalar va ulardan kelib chiquvchi munosabatlar O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi hamda boshqa qonun va qonunosti hujjatlari bilan tartibga solinadi. Biz ushbu maqola orqali bank hisobvarag'I shartnomasi, shuningdek mijozning roziligesiz uning hisob raqamidan mablag'larni o'chirish masalalarini milliy qonunchiligidan bilan hamda jahon tajribasida tahlil qilamiz.

**Kalit so'zlar:** bank hisobvarag'i shartnomasi, aksept, mijozning roziligesiz o'chirish asoslari.

## **GROUNDS FOR TRANSFERRING MONEY FROM THE CUSTOMER'S ACCOUNT WITHOUT THEIR CONSENT**

**Adizova Nargiza Parda qizi**

3rd year student of Tashkent State University of Law

[adizovanargiza9@gmail.com](mailto:adizovanargiza9@gmail.com)

**Abstract.** In the current developing era, many payments are made without cash. As a result, the bank account agreement concluded between banks and customers is widely used in practice. These contracts and relations arising from them are regulated by the Civil Code of the Republic of Uzbekistan and other regulatory legal acts. In this article, we will analyze the issues of a bank account agreement, as well as withdrawing funds from a client's account without the client's consent, in accordance with our national legislation and world experience.

**Key words:** bank account agreement, acceptance, grounds for termination without the consent of the client.

**Kirish.** Bugungi kunda banklar faoliyati juda tez rivojlanyapti. Banklar faoliyatini huquqiy tartibga solish uchun “Bank va bank faoliyati to’g’risida” O’zbekiston Respublikasining qonuni ham qabul qilingan. Banklar faoliyatini muvofiqlashtirib turuvchi organ O’zbekiston Respublikasining Markaziy banki hisoblanadi. Fuqarolar va yuridik shaxslar banklar bilan turli shartnomaviy-huquqiy munosbatga kirishadilar, xususan kredit, bank omonati, bank hisobvarag’i va boshqa shartnomalar tuziladi.

O’zbekiston Respublikasida mulk huquqi daxlsizdir. Xususiy mulk boshqa mulk shakllari bilan bir xilda himoya qilinadi. Mulkdor o’z mulkidan istaganicha foydalanishi va uni tasarruf etishi mumkin. Bu umumiy qoidalar barcha turdagи mulklar uchun tadbiq qilinadi. Xususan bank hisob raqamida pul summasi uchun ham.

Mamlakatimiz Fuqarolik kodeksida bank hisobvarag’i shartnomasiga quyidagicha ta’rif berilgan “Bank hisobvarag’i shartnomasi bo‘yicha bir taraf — bank yoki boshqa kredit muassasasi (bundan buyon matnda — bank) ikkinchi tarafning — mijozning (hisobvaraq egasining) hisobvarag’iga tushayotgan pul mablag’larini qabul qilish va kiritib qo‘yish, mijozning hisobvaraqdan tegishli summalarini o‘tkazish va to‘lash hamda hisobvaraq bo‘yicha boshqa operatsiyalarni amalga oshirish haqidagi farmoyishlarini bajarish majburiyatini oladi”. Bu ta’rifdan ma’lum bo’ladiki, ushbu shartnoma bir tomonlama majburiyat yuklovchi hamda haq evaziga tuziladigan shartnoma hisoblanadi. Ta’rifdan ko’rinib turibdiki, bank o’z tashabbusi bilan bu operatsiyalarni bajarmaydi, mijozning farmoyishlariga asosan harakat qiladi. Lekin shunday asoslар mavjudki, bank mijozning roziligini olmasdan turib ham uning hisobvarag’idagi operatsiyalarni amalga oshirishi mumkin. Fuqarolik kodeksinig 783-moddasida hisobvaraqdan pul mablag’larini o‘chirish asoslari belgilangan bo’lib, ikkita asosda pul mablag’i o‘chirilishi mumkin:

1) mijozning topshirig‘i asosida;

2) mijozning topshirig‘isiz.

Hisobvaraqlarda turgan pul mablag‘larini mijozning topshirig‘isiz o‘chirishga **sudning qarori bilan**, shuningdek ushbu Kodeksda yoki **boshqa qonunda belgilab qo‘yilgan** yoxud bank bilan mijoz o‘rtasidagi shartnomada nazarda tutilgan hollarda yo‘l qo‘yiladi. Sudning qaroriga ko’ra va boshqa qonunlarda belgilangan holatlarga quyidagilar kiradi:

- 1) issiqlik energiyasi uchun hisob kitoblarda<sup>1</sup>
- 2) talabnomaga da’vo summasini tan olish to’g’risida qarzdor yozma javobining asl nusxasi<sup>2</sup>
- 3) banklar tomonidan- xo’jalik yurituvchi subyektlar tomonidan kreditlar bo‘yicha qarz o‘z vaqtida so’ndirilmaganda
- 4) shartnomada bank tomonidan amalga oshiriladigan xizmatlar uchun pul mablag‘larini yechib olish nazarda tuzilganda
- 5) kommunal qarzdorlik yuzasidan
- 6) asosiy hisobvarag‘iga davlat ijrochilari tomonidan soliq qarzi bo‘yicha inkasso topshiriqnomalari qo‘yilgan taqdirda<sup>3</sup>
- 7) shartnomada ko’rsatilgan fors-major holatlarida
- 8) ish haqi bilan bog’liq bo’lgan ijro hujjatlari bo’lgan taqdirda
- 9) alimentlarni undirishga doir talablarni qondirish bo‘yicha ijro hujjatlari bo‘yicha ushunchi shaxslarni o’ylagan holda
- 10) mualliflik shartnomalariga oid mukofotlarni to’lashga oid ijrochi hujjatlari bo’lganda
- 11) shaxslarning hayoti va sog’lig’iga yetkazilgan zararni o’rnini qoplash bo‘yicha ijrochi hujjatlari bo’lganda;

<sup>1</sup> Fuqarolik kodeksiga sharx. II qism.Toshkent- 2013 Baktria press.

<sup>2</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-18942>

<sup>3</sup> <https://lex.uz/docs/-1979969#-1980960>

12) bankdan olingen kreditlar va ularga hisoblangan foizlar bo‘yicha muddatida to‘lanmagan qarzdorlikni kafil bo‘lgan shaxsdan undirish uchun, bundan kafilning subsidiar javobgar bo‘lishi nazarda tutilgan hollar mustasno.

Bank hisobvarag’idan mijozning rozilgisiz pul mablag’larini o’chirish akseptsiz yoki so’zsiz o’chirish ham deyiladi. Aksept — to‘lovchining, to‘lov uning hisobidan amalga oshirilishiga roziligi yoki qarzdorlikni tan olganligi<sup>4</sup> hisoblanadi. Akseptli to‘lov talabnomasi to‘lovchining ruxsati bilan iじro qilinadi. Debitorlik-kreditorlik qarzlarini solishtirish dalolatnomasi, yetkazib berilgan tovarlar (bajarilgan ishlar yoki ko‘rsatilgan xizmatlar) bo‘yicha rasmiylashtirilgan dalolatnomaning to‘lov talabnomasiga ilova qilinishi mablag’larni akseptsiz ravishda hisobdan chiqarish uchun asos bo‘lmaydi. Mablag’larni to‘lovchining banki akseptsiz to‘lov talabnomalari asosida mablag’larni hisobdan chiqarganda, to‘lov talabnomasi old qismining yuqori o‘ng burchagiga “Akseptsiz” degan yozuv kiritadi va to‘lovnini amalga oshiradi.

Bank hisobvarag’i shartnomasi Rossiya Federatsiyasining Grajdanskiy kodeksida belgilangan bo‘lib bizdagi bank hisobvarag’i shartnomasidan biroz farq qiladi. Xususan Kodeksda “Основные положения о залоге прав по договору банковского счета” nomli shartnoma mavjud bo‘lib bu shartnomaga ko‘ra huquqlar garovga qo‘yilishi mumkin. Bank hisobvarag’i shartnomasi bo‘yicha huquqlar garovi to‘g‘risidagi shartnoma, agar uni tuzish vaqtida mijozning garov hisobvarag’ida mablag’ bo‘lmasa ham tuzilishi mumkin.<sup>5</sup> Bundan tashqari Rossiya ГК ning 854-moddasida “Основания списания денежных средств со счета” nomli qoida mavjud bo‘lib, unga ko‘ra quyidagi hollarda hisobvarag’dan pullar o’chiriladi:

<sup>4</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-4790646>

<sup>5</sup> [http://www.consultant.ru/document/cons\\_doc\\_LAW\\_5142/2764e202f670b4959623f0ed0ea201198212649a/](http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_5142/2764e202f670b4959623f0ed0ea201198212649a/)

1. Hisobvaraqdagi mablag‘larni hisobdan chiqarish mijozning buyrug‘i asosida bank tomonidan amalga oshiriladi.

2. Mijozning buyrug‘isiz hisobvaraqdagi mablag‘larni hisobdan chiqarishga sud qarori bilan, shuningdek qonun hujjatlarida belgilangan yoki bank bilan mijoz o‘rtasidagi shartnomada nazarda tutilgan hollarda yo‘l qo‘yiladi.<sup>6</sup> Aynan bu masalada mamlakatimiz va Rossiya qonunchiligi bir biriga o‘xshaydi. Agar qarz miqdori ahamiyatsiz bo’lsa, u hisobdan chiqariladi va shaxs pulni boshqarishni davom ettirishi mumkin. Lekin katta qarz hosil bo‘lganda, masalan, uy-joy kommunal xizmatlari, soliqlar yoki kredit uchun hisobvaraqqa tushgan barcha pullar qarzni to’lash uchun ketadi.Qonunga ko’ra, cheklov muddati **uch yil** va kreditorlar ko’pincha muddati tugashi arafasida sudga murojaat qilishadi. Shu bilan birga, qarz miqdori muhim emas: ular, masalan, qarzdor bir vaqtlar to’lashni unutgan 300 ₸ jarimani talab qilishlari mumkin. Endi, qarzlarni undirishda, da’vo qilish tartibi ko’zda tutilgan: inkassator birinchi navbatda qarz talabnomasini yuborishi kerak. Bir oy ichida qarzdor o’z ixtiyori bilan qarzni to’lashi mumkin. Ammo sudgacha bo’lgan tartib jismoniy shaxslar o‘rtasidagi kreditlarga nisbatan qo’llanilmaydi: agar ular qo’shnisidan kvitansiya bo'yicha qarz olgan bo’lsa va pulni o’z vaqtida qaytarmasa, qo’shni bir oy kutishga majbur emas va birinchi kundan boshlab sudga murojaat qilishi mumkin. Kreditorda qarzni olish uchun ikkita variant bor: **sudga da’vo arizasi berish yoki sud buyrug‘ini** talab qilish. Aksariyat qarzdorlar ikkinchi variant bilan shug’ullanishadi: yig'ilishlarga borishning hojati yo’q. Sud qarori bilan ular 500 000 ₸ gacha bo’lgan qarzni talab qilishlari mumkin, minimal miqdor yo’q, siz kamida 100 ₸ talab qilishingiz mumkin. Agar summa 500 000 ₸ dan ortiq bo’lsa, qarzni faqat sud orqali undirish

---

<sup>6</sup>

<https://www.consultant.ru/cons/cgi/online.cgi?req=doc&rnd=inHRLA&base=LAW&n=377025&dst=101633&field=134#pi8IPNT8XuR8ds0F1>

mumkin. Buyruq besh kun ichida chiqariladi: sud majlisi o'tkazilmaydi, sudlanuvchining vajlari va e'tirozlari eshitilmaydi. Sudya da'vogarning arizasi asosida qaror qabul qiladi. Buyurtmaning tasdiqlangan nusxalarini qarzdorga va undiruvchiga yuborish uchun yana besh kun muddat beriladi. Ba'zida sud ijrochilari kredit hisobidan barcha pullarni o'chirib qo'yishadi yoki hisobni hibsga olishadi. Ammo, **2007 yil 2 oktyabrdagi 229-FZ Federal qonuniga** binoan, bu noqonuniy hisoblanadi. Bunday holda, qarzdor sud ijrochisidan pulning yarmini qaytarishni talab qilishi mumkin. Ish joyida olgan jarohati uchun ish beruvchidan tovon puli kiradi, Siz onalik kapitalidan, alimentdan, bolani qo'llab-quvvatlashdan, nogironlarga g'amxo'rlik qilish uchun kompensatsiyadan va boquvchisini yo'qotganlarning pensiyalaridan hisobdan chiqara olmaysiz. Ushbu tartib Rossiya Federatsiyasida amal qiladi.

Xulosa qillib aytadigan bo'lsak, bankda ochilgan hisob raqamdag'i pul summalarini bank mijozining xususiy mulkidir. Davlat organlari ham, bankning o'zi ham ushbu pul summasidan foydalanishi yoki uni foydalanishni cheklab qo'yishga haqli emas. Lekin mijoz o'z majburiyatlarini vijdonan bajarmadimi, uning bajarilmagan majburiyatları uning roziligidiz ham bank hisob raqamidagi mablag'ga qaratiladi. Lekin shuni ham nazarda tutish kerakki, mijozning akseptisiz hisobvarag'dan pul mablag'larini yechish asoslari qonun bilan cheklab qo'yilishi zarur. Bundan tashqari, ushbu asoslarning qat'iy ro'yxati shakllantirilib, Fuqarolik kodeksiga kiritilishi kerak, deb o'ylayman. Negaki, ba'zi fuqarolarimiz ushbu qoidalarni bilmasliklari mumkin. Turli qonunlar va qonunosti hujjatlaridagi asoslarni esa topish biroz mushkul ish.

## Adabiyotlar/ References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi;
3. Fuqarolik huquqi. II qism. Darslik. 2007yil.
4. Гражданский кодекс Российской Федерации. (част втояя).
5. Иброҳимов, А. А. Ў. (2021). КОРПОРАЦИЯНИ БОШҚАРИШДА ФИДУЦИАР МАЖБУРИЯТЛАР ВА УЛАРНИ ЎЗБЕКИСТОНДА ҚЎЛЛАШ ИМКОНИЯТЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 841-853.
6. Ibrohimov, A. A. M. O. G. L., & Nечаева, Е. В. (2022). XALQARO INVESTITSIYA HUQUQIDA MILLIY REJIM VA ENG QULAY SHARTLAR REJIMI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(2), 414-425.
7. Ibrohimov, A. A. O., Koryogdiyev, B. U. O., & Tojiboyev, S. Z. (2022). KORPORATIV NIQOBLARNI OLIB TASHLASH KONSEPSIYASI VA UNI O'ZBEKISTON KORPORATIV HUQUQIDA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 1068-1082.
8. O'G'Li, A. A. M. (2022). KORPORATSIYA USTAV KAPITALI FUNKSIYALARI VA UNGA OID MILLIY QONUNCHILIK NORMALARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. *Academic research in educational sciences*, 3(8), 109-113.
9. Azimjon, I. (2022). ZARAR-YURIDIK SHAXS ISHTIROKCHILARI VA BOSHQARUV ORGANLARI FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIGINING ZARURIY SHARTI SIFATIDA.
10. O'zbekiston qonunchiligi manbasi <https://lex.uz/>